

1917-1924-YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTAB VA MADRASALARDAGI TA'LIM TIZIMDA JADIDCHILIK HARAKATINING O'RNI.

Salohiddin Usmonov Dushan o'g'li

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası assistenti

Namozova Sevinch Asqar qizi

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15472147>

Anontatsiysa. Ushbu maqolada 1917-yilgi fevral voqealari va oktyabr to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'fkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarishlar va bu davrdagi jadidchilik harakatining o'rganishning bugungi kun ta'lim tizimidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, ta'lim tizimi, jadidchilik harakati, madrasa, maktab, usuli jadid.

Abstract. This article discusses the dramatic changes in the lives of the peoples of Central Asia after the February events of 1917 and the October Revolution - socio-political, economic, spiritual and ideological, including in the fields of public education - and the role of the study of the Jadid movement of this period in the current education system.

Keywords: Turkestan, education system, Jadid movement, madrasa, school, Jadid method.

Аннотация. В статье рассматриваются кардинальные изменения в жизни народов Средней Азии после февральских событий 1917 года и Октябрьской революции — социально-политические, экономические, духовно-идеологические, в том числе в сфере народного образования, — и роль изучения джадидского движения этого периода в современной системе образования.

Ключевые слова: Туркестан, система образования, джадидское движение, медресе, школа, джадидский метод.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish" to'g'risida qarorining asosiy maqsadi hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish,

shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalashdir. Bugungi kunda jadidchilik harakati o'ganish va uning ilg'or tajribalarini keng hayotimizga hamda ta'lim tizimi oldidda turgan muammolarni hal etishga qaratish barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda[1].

XIX asrning boshlariga kelib Turkistonda islom dini keng tarqalib, mustahkam o'rnashib o'z mavqeiga ega edi. Bu davrga kelib diniy e'tiqod asosiy tarbiya kuchi sifatida maydonga chiqdi. Islom dini murakkab ta'limot bo'lganligidan u turlicha talqin qilina boshladi. Islom dinida turli xil oqimlar vujudga kela boshladi. Bu holat islom dinini sofliги uchun kurashuvchi ilg'or kishilarni qoniqtirmas edi. Shuning uchun ham Buxorodagi ma'rifatparvarlar, musulmon ruhoniylar va ziyolilar orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar.

“Jadid” - so'zi arabcha so'z bo'lib, “yangi”, jadidizm esa yangilik tarafdorlari degan ma'noni anglatadi.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanar edi. Shahar maktablarida diniy ta'limotdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari – yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilar edi. Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30-taga qishloq joylarida esa 10-15 taga yetar edi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishiga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda avval “Haftiyak”, keyin “Qur'on” yod olinar, so'ng “Chor kitob”ga o'tilardi[5].

Har qanday ijimoiy tuzum maktab-maorif, ilm-fan va shu kabi muhim soha vazifalarini hal etmasdan istiqbol sari ko'z tikolmasligi ayondir. Shu bois sovet hokimiyati mutasaddilari ham bu masalalarga ahamiyat berar ekanlar, avvalo, ularni o'z sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib hal etishga intildilar. Ayniqsa, yangi tuzum xalq ta'limi tizimini o'z sotsialistik maqsad va g'oyalari ruhida shakllantirishga alohida urg'u berdi. Toshkentning eski shaharida uzoq



yillar davomida politsiya boshlig'i lavozimida ishlagan N. S. Likoshinning o'zbek bolalarining bilimga chanqoqligi va tabiiy qobiliyatlariga baho bergani diqqatga sazovordir. «Men, - deb yozgan edi N. S. Likoshin, - eski maktabni bitirib, to'g'ri shahar bilim yurtiga kelgan bolalarni ko'rganman. Ruslar orasida yurgan bu bolalar tezda o'z tengdoshlari bilan chiqishib, ruscha biyron gaplashadigan bo'lib ketishdi. Buning asosiy sababi, mahalliy bolalarning rus bolalari bilan birga bo'lishidadir. O'yinlarda bolalik mashg'ulotlarida og'izaki nutq tez rivojlanadi». Oliy lavozimdagi mustamlaka ma'murlari ruslashtirish siyosatida Turkiston yoshlariga e'tiborini kuchaytirgani bejiz emas, albatta. Ular mahalliy aholini idora qilish kelajagini yoshlar orasidan tarbiyalanadigan sodiq qullarda ko'rdi va shu maqsadga ta'lim ishlarga ahamiyat qaratdi. 1918-yil noyabrida Turkiston sovet hukumatining cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risidagi dekreti chiqdi. Unga ko'ra o'lkadagi mavjud xususiy, eski diniy maktablar faoliyati taqiqlanmagan bo'lsa-da, biroq yangi sovet maktablarini tashkil qilish, ularni ko'paytira va kengaytira borish, ta'limning sinfiy mohiyatiga e'tibor tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bordi. Maktab ikki pog'onaga bo'lindi:

1-pog'ona bilim yurtlari dastlabki uch sinfni o'z ichiga olardi

2-pog'ona yana 4 sinfdan iborat edi[6].

O'rta maktab ham mavjud bo'lib, keyingi uch sinfni o'z ichiga olardi. Biroq bunday maktablar juda oz edi. Ko'proq 1- pog'ona maktablari eng ko'p tashkil etilgan edi. Shu bilan birgalikda maktablarning moddiy bazasi nochor ahvolda bo'lgan. Ularda o'quv qurollari, dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar, yetuk bilimli o'qituvchi kadrlar yetishmasdi. Turkiston xalq ta'limi bo'limi mudirlarining 1920-yil mayida bo'lib o'tgan 1-qurultoyida ham bular aniq e'tirof etilgandi. Hokimiyat mutasaddilarining o'qituvchilarni turli yumushlarga, jumladan, harbiy harakatlarga tez-tez safarbar etishi ham ular sonining kamayib borishiga sabab bo'layotgandi. Buning orqasida ko'plab maktablarda o'qituvchilar tarkibi 75% va undan ham ko'proqqa qisqarib ketdi. Buning ustiga jiddiy moddiy ta'minotning yo'qligidan xo'jako'rsinga tashkil etilgan maktablar mahalliy bolalarni o'z bag'riga jalb qila olmadi. Masalan, o'lka bo'yicha maktab yoshidagi bolalarning 70% dan ko'pi maktabga tortilmay qoldi. Hatto poytaxt Toshkentda, uning eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafari, ya'ni 25%i o'qirdi, xolos[3].


XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-



madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgan sababli eski tuzum, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar deb atalgan. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi.

1917-yilgi fevral voqealari va oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkiston o'lkasida milliy demokratya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab va maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi. Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozii Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sagasida tug'ilgan. Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqanda mashhur ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Ahmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonqul Shomansurzoda zudlik bilan maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan madonga chiqdilar. Quyida millatimizning ziyolilaridan bir nechtasining maorif tizimiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) «Muntaxbai jug'rofiyai umumiy» (Qisqacha umumiy jo'g'rofiya), «Kitobat-ul-atfol» (Bolalar maktabi), «Muxtarasi tarixi islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Madxali jo'g'rofi umroniy» (Axolii jo'g'rofiyasiga kirish), «Muxtasari jo'g'rofiyai rusiy» (Rossiyaning qisqacha jug'rofiyasi), «Amaliyoti islom» va hokazo kitoblarni yozdi va ulardan darslik sifatida foydalandi. «Usuli jadid» maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu yangi usul maktablari chor hukumati tomonidan va mahalliy ruxoniylar, eski maktablarning domlalar tomonidan ta'qib qilib kelinardi. Bunday to'siqlar va qarama-qarshiliklarga qaramasdan Behbudiy va uning safdoshlari «Usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal sur'atlar bilan olib bordilar. Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma'rifat orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi. Quyida Mahmudxo'ja Behbudiyning «Usuli jadid» maktabidagi o'qitish tizimi haqida ma'lumot kiritiladi.




“Usuli jadid”				
1-bosqich. Ibtidoiy qism				2-bosqich. Rushadiya
1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	4 yil(davomiyligi)
Forscha, arabcha yozuv, o‘qish o‘rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o‘rgatilgan.	Haftiylar, imon va e‘tiqod dars, forsiy, turkiy va arab tilidagi she‘rlar, qasidalar o‘qitilgan.	Qur‘oni karim, islom ibodati, tajvid, Sa‘diyan nasihatlar, forsiy va turkiy til puxta o‘rgatilib, undan insholar yozdiriladi.	Kalom-ul Sharif, mufasssal tavjid, forsiy turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob, tarix, jo‘g‘rofiya o‘qitilgan.	Birinchi bosqichda o‘zlashtirishlariga qarab, madrasaga yuborar, bolaning o‘zi xohlasa, Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo‘llanma berilar edi. Sakkiz sinf, ya‘ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsiy va turkchada bimalol so‘zlab, yozardi. Ruschani ham o‘qib, bimalol gaplasha olar edi.

1-jadval

Abdulla Avloniy (1878-1934)ning “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” hamda “Birinchi muallim”(1912), “Turkiy guliston yoxud axloq”(1913), “Ikkinchi muallim”(1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratadi. O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya‘ni “Bola tarbiyasining fanidir”, deb ta‘rif berdi. Tabiiy bunday ta‘rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”
2. “Badan tarbiyasi”
3. “Fikr tarbiyasi”
4. “Axloq tarbiyasi”



Munavvar Qori Abdurashidxon(1878-1931) o'zi ochgan yangi usul «namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarlik ancha jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilgan. Munavvar Qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush «usuli savtiya» usulida darsliklar – «Adibi avval alifbosi» (birinchi adib 1907), «Adibi soniy» (ikkinchi adib 1907), «Yer yuzi» (Jug'rofiya), «Havoiyon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darsliklar sifatida bir necha bor qayta nashr etildi. Bu maktabda u beshi yillik bilimni uch yilda berishga muvassar bo'ladi.

Abdurauf Fitrat(1886-1938) turli bilim muassasalari uchun qator darslik va qo'llanmalar yaratadi. 1917 yili uning «Ibtidoiy maktablarning so'nggi sinflar uchun mo'ljallab tuzilgan o'zbek tilidagi o'quv darsligi» Bokuda nashr etiladi. Uning turli mavzudagi publisistik maqolalari o'sha davr matbuotida tez-tez e'lon qilib turiladi. Ayniqsa, «Ittifoq etaylik», «Yurt qayg'usi», «Maorif ishlari», «Maktab ishlari», «Maktab kerak», «Tilimiz» kabi maqolalar bevosita maorif masalasiga bag'ishlangan edi. Adib 1918 yilning aprelida Toshkentga kelib o'qituvchilik qilagan. Shu bilan birga u Toshkentda «Chig'atoy gurungi» tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'ydi. U jamiyat safida madaniyatimiz tarixida alohida kasb etgan o'tmish ilmiy, adabiy va madaniy merosimizni o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, avlodlarni aedodlarning o'lmas ruiyati bilan bog'lashda katta xizmat qilgan. 1922-1923 yillarda Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri sifatida barcha o'zbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun maktablar ochish, o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar tayyorlash sohasida katta ishlar olib bordi. Xotin-qizlar maktablarini ko'paytirishga, xotin-qizlarni ma'rifatga tortishga alohida e'tibor beradi. Fitrat 1920-1924 yillarda Moskva va Leningradda yashab ijod qiladi. Fitrat O'rta Osiyoning birinchi professori bo'lib tarixga kiradi.

SADRIDDIN AYNIIY (1878-1954) “Buxoroyi sharif shirkati” muassisligida 1909-yilda jadid maktablari uchun yozgan “Tartil ul-Qur'on” (“Qur'oni Karimni o'qish va talaffuz qilish qoidalarini o'rganishga bag'ishlangan kitob”), “Zaruriyoti diniya” (“Dinning zarurati”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli kitoblarni nashr ettiradi. Natijada maktab o'quvchilari darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlanadi. Tez fursatda xalq orasida obro' qozongan Sadriddin Ayniy va Abduvohid Munzim maktabi Buxoroning mutaassib ulamolari qarshiligiga uchraydi. Hukumatning aralashuvi bilan 1909-yili maktab faoliyati to'xtatiladi. Bunday vaziyatda jadidlar maorifni isloh qilishga oid dasturlarining keyingi bosqichlarini amalga oshirishga kirishadilar Sadriddin Ayniy va Abduvohid



Munzimlar 1909-yilda “Tarbiyayi atfol” jamiyatini tuzish ishlarida bosh-qosh bo’ladilar. Jamiyat tarkibiga 28 nafar a’zo kiritilgan bo’lib, ularning 14 nafari rais, qozi, mudarris hamda mulla va mullozodalardan iborat bo’lgan. “Tarbiya atfol” jamiyati o’z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko’rsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bog’chasaroy shaharlariga o’quvchilar yubordi;

Ikkinchidan, Turkiya, Eron hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga kirishdi. Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining har qanday ta’qib va to’siqlariga qaramay, jamiyatning say-harakati bilan bunday nashrlar amirlikda ham keng tarqala boshladi;

Uchinchidan, “Tarbiyayi atfol” jamiyati a’zolari ham o’rinsiz sarf-xarajatlarga, to’y va ma’rakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablag’larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o’qitish uchun sarf qilishga da’vat etdilar;

To’rtinchidan, jamiyatining tashabbusi bilan 1912-yil 11-martdan Yangi Buxoro (Kogon)da fors-tojik tilida “Buxoroyi sharif” gazetasi chop etila boshlandi. 1912-yilning 11-martidan – 1913-yil 12-yanvargacha 153 soni chiqdi.

USMON XO’JA(1878-1968) haqida Sadriddin Ayniyning ma’lumot berishicha, 1913-yilda Usmonxo’ja maktabining o’quvchilari asosan o’zining qarindoshlari bo’lib, keyinchalik ko’plab otalar farzandlarini bu maktabga o’qitish uchun olib kelganlar. O’sha yilning yozida maktab o’quvchilari sonining ko’payishi natijasida Usmonxo’ja boshqa binoni ijaraga oladi va ikkita yordamchi o’qituvchi bilan bolalarga tahsil bera boshlaydi. 1914-yilda o’quvchilar soni 200 ga yetgani sababli Usmonxo’ja maktabni o’z uyiga ko’chiradi. Usmonxo’ja maktabida bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo’lish, bir kunda 4-5 soatdan ortiq dars o’tmaslik, har bir darsdan so’ng o’n daqiqalik tanaffus joriy qilish, diniy va dunyoviy fanlarni barobar o’qitish, har yili bolalarga ikki oylik ta’til berish, o’quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish kabi yangi tartiblar joriy qilingan. Dars jarayonlarida milliy o’quv qo’llanmalar va darsliklardan tashqari, Turkiyadan olib kelgan o’quv qurollari, globus, xaritalar, turk tiliga tarjima qilingan Yevropa adabiyotlaridan ham keng foydalaniladi[7].

Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan “Hurriyat” gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar.”Anjumani maorif” jamiyatining mablag’lariga “Rushdiya” maktabi ochildi va unda bepul ta’lim berilar edi.Abdurauf Fitrat bilan



Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom dini ta'limoti, islom tarixi, musulmon huquqi, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'qitar edilar. 1917-yilning yoziga kelib esa Samarqandning o'zida taniqli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo "Tarbiya" maktabini ochdi. 1918-yil 2-iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununning o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – "Dorilmuallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Munavvar Qori ovro'pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlarni o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Isamtulla Raxmatullayev, Isxoqxon Ibrat, O.Dadaxujayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziyev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918-yil boshida 330 taga, 1920-yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga yetdi.

Xalq maorifi komissarligi 1920-yilda maktablarning o'quv dasturlarini e'lon qildi. Keyinchalik, bu o'quv dasturlari mukkamallashtirildi. Biroq maktablar uchun tuzilgan ana shu eng birinchi o'quv dasturlari chor hukumati va kapitalistik mamlakatlar o'quv dasturlaridan farq qiluvchi xarakterli belgilari bor edi: 1) gumanitar, fizika-matematika va biologiya fanlari kiritilib, o'quv fanlarining xilma-xil bo'lishi; 2) til va adabiyot - 38 soat, matematika - 36 soat, ya'ni, eng ko'p o'quv soatlari berilishi; 3) tabiat, fizika va ximiyaga ko'p soat berilishi (hammasi 48 soat); jismoniy tarbiya -16 va san'atga 21 soat ajratildi[3]. Turkiston respublikasi hukumat muassasalarining mehnat maktabiarini rivojlantirish va mustahkamlash sohasidagi katta tashkilotchilik ishlari ko'p o'tmay sezilarli natijalar berdi. 1921- 22-o'quv yiliga kelib o'lkada 2403 ta maktab va boshqa bolalar muassasalari mavjud bo'lib, ularda, asosan, mahalliy millatlardan bo'lgan 170105 nafar bola o'qir va tarbiyalanar edi, bu esa Turkiston respublikasidagi hamma bolalarning 25% ini tashkil qilardi. 1924-yilning 22-noyabrida esa O'zbekiston SSR Revkomining 1-majlisida Raxim Ing'omov "Maorif xalq komissari" lavozimiga tayinlanadi[4]. O'sha vaqtlardagi o'qituvchilarning esdaliklaridan yangi maktablarning qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlangani va ular qanday qilib shahar va qishloqlarning madaniy markazlariga aylana boshlaganligi ravshan ko'rinib turibdi. Maktablarda kunduzi bolalar, kechqurunlari esa katta yoshdagi kishilar o'qitilgan. Shu bilan

birga aholi orasida jaholatga, diniy xurofotlar va bid'atlarga qarshi qaratilgan katta siyosiy-ommaviy va oqartuv ishlari olib borilgan.

Jadidlarimiz faqatgina hurlik va mustaqillik yo'lboshlovchisi sifatida tarixda qolmay balki ilm-fan va tilimiz boyligi uchun ham o'zlarining hissalarini qo'shishgan. Jadidchilik harakatining ona tili fani rivojiga qo'shgan asosiy hissalar quyidagilardan iborat:

1. Ona tilining ta'lim tizimidagi mavqeini oshirish.
2. O'zbek tilining lug'at boyligi va grammatikasini boyitish.
3. Milliy ong va g'oyalarni ona tili orqali targ'ib qilish.
4. O'zbek tili o'qitish metodikasini yangilash.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati o'zbek tilining ta'lim tizimidagi mavqeini oshirish, lug'at boyligi hamda grammatikasini rivojlantirish, milliy ong va g'oyalarni targ'ib qilish, shuningdek, ona tili o'qitish metodikasini yangilash kabi sohalarda muhim hissaga ega bo'lgan., jadidchilik harakati nomoyondalari ta'lim-tarbiya sohasida o'zbek tilida darsliklar yaratish, yangi usuldagi maktablar tashkil etish, ayollarning ta'lim olishini targ'ib qilish, milliy madaniyat va til rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ular o'zbek xalqining ma'rifiy, ilmiy va madaniy salohiyatini oshirishga qaratilgan faoliyatlari bilan ajralib turdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish" to'g'risida qarori.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatnomasi.
- 3.Ta'lim tarixi. Ma'suda Abdullayeva. Asqarova O'g'iloy, Madaminov Bahodir Hayitboyev Muqimjon : o'quv qo'llanma Toshkent: "Muharir" nashriyoti, 2013. 71-80-betlar.
- 4.1924: Turkistonning parchalanishi (Sovet davlatining O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosat) Qahramon Rajabov:monografiya Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2025. 99-bet.
5. Umumiy pedagogika. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov: darslik Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. 407-423-betlar.
6. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev: darslik Toshkent-2017 312-320-betlar.
7. Jadidlar.uz sayti.

